



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA ILMIY FANTASTIKANING NARRATOLOGIK ASOSLARI

Ma’suma Obidjonova,

ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, PhD

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/NEGS9890

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotlarida ilmiy fantastika janrining narratologik xususiyatlari tahlil qilingan. A. Azimovning “So‘nggi savol” hamda S. Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlari asosida vaqt va fazo kategoriyalarining badiiy talqini, hikoya qilish usuli hamda ilmiy g‘oyaning estetik shakllanishi o‘rganilgan. Tadqiqotda J. Jenet, M. Bal va D. Suvin nazariy qarashlari asos qilib olingan. Natijalar ingliz adabiyotida ilmiy fantastikaning falsafiy-kognitiv yo‘nalishda, o‘zbek adabiyotida esa ruhiy va ma’naviy izlanishlar asosida shakllanayotganini ko‘rsatadi. Maqola ilmiy fantastika janrining o‘zbek adabiyotidagi narratologik tadqiqi uchun metodik asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy fantastika, narratologik jihat, vaqt, fazo, hikoya qilish, qiyosiy tahlil, badiiy struktura, estetik vazifa.*

Abstract. The article analyzes the narratological features of the science fiction genre in English and Uzbek literature. Based on “The Last Question” by Isaac Asimov and “Galaktikada bir kun” by Sadullo Quronov, it examines the artistic interpretation of time and space, the modes of narration, and the aesthetic transformation of scientific concepts. The study employs the theoretical frameworks of G. Genette, M. Bal, and D. Suvin. Findings indicate that science fiction in English literature develops through philosophical and cognitive approaches, while in Uzbek literature it evolves through psychological and spiritual exploration. The paper provides a methodological basis for the narratological study of science fiction in contemporary Uzbek literary scholarship.

Keywords: *science fiction, narratology, time, space, narration, comparative analysis, artistic structure, aesthetic function.*

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon adabiyotida ilmiy fantastika janri faqatgina texnologik yutuqlar yoki koinotga oid tasavvurlarni ifodalovchi yo‘nalish bo‘lib qolmay, balki inson tafakkurining imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazuvchi badiiy shakl sifatida rivojlandi. Ushbu janr orqali adabiyot ilm, ong va axloq o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishga intildi. Ilmiy fantastika bugungi kunda fizik tafakkur bilan badiiy tasavvurni birlashtiruvchi, voqelikni yangi ko‘rinishda ifoda etuvchi ijodiy laboratoriya sifatida talqin qilinadi. G‘arb adabiyotida bu yo‘nalishning eng yorqin namoyandalari sifatida Ayzek Azimov, Artur Klark va Rey Bredberi ijodini ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, Ayzek Azimovning 1956-yilda yozilgan “So‘nggi savol” (“The Last”) asari ilmiy fantastika janrining falsafiy va narrativ imkoniyatlarini kengaytirgan badiiy tajriba hisoblanadi. Asarda insoniyat tafakkurining evolyutsiyasi, texnologiya va abadiyat g‘oyalari o‘zaro uyg‘un holda badiiy ifodasini topgan. O‘zbek adabiyotida esa ilmiy fantastika yo‘nalishi nisbatan kech shakllangan bo‘lsa-da, yangi asr boshlarida mustaqil badiiy oqim sifatida e‘tiborga molik darajada rivoj topdi [Ibrohimova, 2018: 131]. Sa‘dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” nomli qissasi bu jarayonda alohida o‘rin egallaydi. Asarda yosh ixtirochi Ahmadning orzulari, ilmiy izlanishlari va koinotga bo‘lgan qiziqishi orqali inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlari yoritiladi. Muallif bolalik orzulari va ilmiy intilishlarni uyg‘unlashtirgan holda fantastik voqeani milliy ruh bilan boyitgan. Shu jihatdan “Galaktikada bir kun” o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastika janrining yangi narrativ modelini yaratgan asar sifatida qadrlanadi.

Ingliz va o‘zbek adabiyotida yaratilgan ilmiy fantastika asarlari o‘rtasida o‘xshashlik va farqlar, avvalo, ularning hikoya qilish uslubida, ya’ni narrativ strukturasida namoyon bo‘ladi. Ayzek Azimovning asarida voqealar koinot miqyosida, kollektiv ongning bosqichma-bosqich rivoji asosida ifodalansa, Sa‘dullo Quronov asarida syujet bir shaxs, yosh ixtirochi nigohi orqali beriladi. Bu ikki turdagi bayon o‘quvchida ilmiy fantastikaning turlicha kognitiv va hissiy tajribasini uyg‘otadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o‘zbek adabiyotlarida ilmiy fantastika janrining narratologik asoslarini tahlil qilishdan iboratdir. Shu maqsadda Ayzek Azimovning “So‘nggi savol” (“The Last Question”) va Sa‘dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlarida syujet tuzilishi, vaqt va fazo talqini, muallif nutqi hamda voqea bayonining o‘ziga xos usullari o‘rganiladi. Ayzek Azimov va Sa‘dullo Quronov asarlarining o‘zaro qiyosiy o‘rganilishi ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning qanday narrativ model asosida shakllanganini aniqlash imkonini beradi. Asimov hikoyasida voqealar koinot va vaqtning cheksiz nuqtalarida, kollektiv ong ko‘lami orqali yoritilsa, Quronov asarida bayon bir shaxsning ichki dunyosi, orzulari va ilmiy izlanishlari bilan bog‘liq tarzda quriladi. Har ikki ijodkorning hikoya tuzilishidagi bu farqlar ilmiy fantastikaning badiiy tabiati, kognitiv ta‘siri va estetik mohiyatini anglashga yordam beradi.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotlarida ilmiy fantastika janrining narratologik asoslari, ya‘ni syujet tuzilishi, vaqt va fazo munosabatlari, muallif ovozi hamda bayon usullarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida Jerard Jenet va Mike Balning narratologiya nazariyalari, shuningdek Darko Suvinning ilmiy fantastikaga doir “novum” va “kognitiv begonalashuv” konsepsiyalaridan foydalaniladi. Mazkur yondashuv orqali ilmiy fantastika janrining o‘zbek va ingliz adabiyotlarida qanday estetik va badiiy yo‘nalishlarda shakllangani, shuningdek hikoya tuzilishida milliy tafakkur unsurlarining o‘rni aniqlanadi. Natijada adabiyotdagi ilmiy fantastika janrining narrativ tabiati – ya‘ni inson tafakkuri va ilmiy tasavvurning badiiy ifodasi – qiyosiy adabiy asosda yoritiladi.

Ilmiy fantastika janrining shakllanishi adabiy tafakkur tarixida insonning o‘zini va olamni bilishga bo‘lgan intilishi bilan uzviy bog‘liq. Bu janr voqelikni an‘anaviy realistik doiradan chiqarib, uni kognitiv, ya‘ni bilishga asoslangan badiiy tajribaga aylantiradi [Todorov, 1975:109]. Shu bois ilmiy fantastika har doim ikki asosiy qatlamni birlashtiradi: ilmiy izlanishning ratsional mohiyati va badiiy tasavvurning estetik kuchi.

Adabiy tahlil nuqtayi nazaridan bu janrni o‘rganishda narratologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Narratologiya hikoya va hikoya qilish o‘rtasidagi farqni, voqelikning vaqt va fazodagi tashkilini hamda bayonchi nuqtayi nazarini aniqlashga yordam beradi. J. Jenet o‘zining ishlari orqali hikoyaning zamon, tartib, davomiylilik, chastota, nuqtayi nazar va ovoz kabi komponentlarini ajratadi. Bu unsurlar har qanday asarning ichki mexanizmini, ya‘ni voqeani qanday aytilishini belgilaydi. Ilmiy fantastika esa ushbu komponentlarga o‘ziga xos mazmun yuklaydi, chunki unda vaqt, fazo va qahramon odatiy realizm chegarasidan chiqib, ilmiy-texnologik model asosida quriladi. M. Bal narrativni matn, hikoya va fabula darajalarida tahlil qilish zarurligini ta‘kidlaydi [Bal, 2017: 23]. Uning fikricha, ilmiy fantastika asarida matn ko‘pincha voqealarning soddaligidan emas, balki ularni bayon etish usulidagi murakkablikdan o‘z kuchini oladi [Genet, 1980: 65]. Masalan, A. Azimov hikoyasida vaqt chiziqli tarzda rivojlanmaydi, balki har bir bosqich yangi kognitiv bosqichni bildiradi. Shu tariqa hikoya qilish shakli ilmiy g‘oyaning o‘ziga aylanishiga xizmat qiladi. Ilmiy fantastikaning nazariy asoslarini tadqiq qilgan D. Suvin bu janrning mohiyatini novum va kognitiv begonalashuv tushunchalari orqali izohlaydi [Suvin, 1979: 72]. Novum deb har bir ilmiy fantastik asarda mavjud bo‘lgan ilmiy yoki texnologik yangilik nazarda tutiladi. Bu yangilik voqealar tizimini faollashtiradi, o‘quvchini tanish dunyodan ajratadi va uni yangicha tafakkurga yo‘naltiradi. Kognitiv begonalashuv esa o‘quvchini tanish dunyodan uzoqlashtirgan holda, o‘sha dunyoga tahliliy nigoh bilan qarash imkonini beradi. Shu bois ilmiy fantastika voqeani emas, balki tafakkur jarayonining o‘zini hikoya qiladi. Ilmiy fantastika asarlarida vaqt va fazo odatiy realistik tasvir chegaralaridan chiqadi. J. Jenet ta‘riflagan anaxronika hodisasi, ya‘ni voqealarning vaqt bo‘yicha tartibdan chetlanishi, bu janrda keng qo‘llanadi. A. Azimov asarida vaqt insoniyat tarixining milliard yillik davomiyligida kengayadi, S. Quronov asarida esa vaqt nisbiylik xususiyatini oladi:

o‘quvchi bir kun ichida butun galaktika makonini kechib o‘tadi. Shu tariqa vaqt har ikki yozuvchida ham nafaqat hikoya vositasi, balki mazmunning o‘zi hisoblanadi. Narrativning yana bir muhim elementi bayonchi va nuqtayi nazar hisoblanadi. M. Bal bu jarayonni fokalizatsiya tushunchasi bilan ifodalaydi. Fokalizatsiya hikoyaning kimning nigohi orqali berilishini anglatadi [Seed, 2011: 6]. A. Azimov asarida bayonchi global va ob‘ektiv pozitsiyada turib, insoniyatni umumiy ong sifatida tasvirlaydi. S. Quronov asarida esa voqealar yosh ixtirochi Ahmadning nigohi orqali beriladi, bu esa hikoyaga subyektiv va hissiy ohang bag‘ishlaydi. Shunday qilib, birinchi asarda bilish jarayoni texnologik ongga tayanadi, ikkinchisida esa insoniy idrok asosiy o‘rin tutadi.

Ilmiy fantastikaning narratologik asoslarini tahlil etishda diskurs jihati ham alohida e‘tiborga loyiq. Bu janrda ilmiy atamalar, fizik yoki texnik tushunchalar nafaqat informativ, balki poetik vazifani ham bajaradi. Masalan, A. Azimov entropiya, abadiylik va yorug‘lik kabi tushunchalarni falsafiy metafora darajasiga ko‘taradi. S. Quronov esa gravitatsiya, energiya va kema generatori singari ilmiy terminlarni bola tafakkurining orzulari bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada ilm bir-biridan ajralib turadigan badiiy-estetik vositaga aylanadi.

A. Azimovning “So‘nggi savol” va S. Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlari o‘z davrida yaratilgan ilmiy fantastika namunalari eng yorqinlaridandir. Har ikki yozuvchi hikoya qilishda ilmiy g‘oyani badiiy voqeaga aylantirish orqali inson tafakkurining chegaralarini kengaytirgan. Shunga qaramay, ularning narrativ qurilishida tub farqlar mavjud: biri koinot miqyosida falsafiy o‘qni belgilasa, ikkinchisi insonning ichki olamiga yo‘nalgan ruhiy izlanishni tasvirlaydi. A. Azimov “So‘nggi savol” asarida insoniyat taraqqiyotini yetti bosqichda hikoya qiladi. Har bosqichda zamon o‘tadi, texnologiyalar yangilanadi, biroq bir savol o‘zgarmaydi: “Entropiyani qaytarish mumkinmi?” Hikoya quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

“So‘nggi savol birinchi bor, hazil aralash tarzda, 2061-yil 21-may kuni, insoniyat ilk bor yorug‘likka qadam qo‘ygan paytda so‘raldi”¹. Bu jumla hikoyaning mazmuniy yadrosini tashkil etadi. Voqealar to‘g‘ri chiziqli ketma-ketlikda emas, balki doira shaklida (siklik) rivojlanadi. Har bir yangi sahnada insoniyat o‘sha savolga qaytadi. Shu orqali vaqt hikoyaning asosiy semantik mexanizmiga aylanadi. J. Jenet nazariyasiga ko‘ra, bunday tuzilma “analeptik spiral” deb ataladi, ya‘ni har bir bosqich o‘tgan vaqtga murojaat qiladi, lekin yangi ma‘noda. S. Quronov “Galaktikada bir kun” qissasida voqeani bola tafakkurining oqimida quradi. Ahmad ismli yosh ixtirochining orzulari, xotiralari va ilmiy izlanishlari bir-biriga tutashgan. Qissa Ahmadning bolalikdagi o‘yinchoq uchish apparatini eslashdan boshlanadi: “*Ahmad bir paytlar maktab hovlisida yasagan kichik parvoz apparatini eslab, endi haqiqiy uchish mashinasini yaratish haqida o‘ylardi*” [Quronov, 2019: 8].

Bu epizodda o‘tgan zamon va hozirgi holat bir butun tasavvurga aylanadi. O‘quvchi Ahmadning orzulari orqali vaqtning subyektiv kechishini his etadi. Muallif uchun voqelik real voqealar ketma-ketligi emas, balki orzu va xotiraning ichki harakati sifatida muhim. A. Azimov asarida bayonchi ovozi butunlay betaraf, lekin u insoniyat tafakkurining ichidan so‘zlaydi. Hikoyaning oxirida bayonchi mutlaq ovozga aylanadi: “*Markaziy kompyuter dedi: “Nur bo‘lsin!”. Va nur paydo bo‘ldi*” [Azimov, 1959: 3].


Bu yakuniy satr insoniyatning texnologiya orqali yaratuvchilik maqomiga ko‘tarilishini bildiradi. M. Bal bunday bayonni “nol fokalizatsiya” deb ataydi, ya‘ni hikoya cheklanmagan nigohdan beriladi. Muallif bu yerda na bir shaxs, na bir vaqtga bog‘liq. U butun koinot darajasida so‘zlaydi. S. Quronov asarida esa muallif Ahmadga yaqin turadi. Uchinchi shaxs tilidan qilingan hikoyalar also qahramonni begonaga aylantirmaydi. Ahmadning fazoviy parvoz oldidan kechgan

¹ Tarjimalar muallif tomonidan amalga oshirilgan.


kechinmalarini muallif shunday ifodalaydi: “*U yuragining gupillashini eshitdi, oynaga qaradi va o‘z ko‘zlarida qo‘rquv bilan birga ishonch chaqnoqini ko‘rdi*” [Quronov, 2019: 23].

Bu tasvirda muallif qahramon ruhiyatiga yaqinlashadi. O‘quvchi Ahmadning hislarini bevosita sezadi. Shunday qilib, “Galaktikada bir kun”da bayon ichki fokalizatsiyaga asoslanadi, bu esa o‘quvchini bolalik orzusi va koinotning hissiy tasavvuriga olib kiradi. Har ikki asarda fazo obrazining badiiy yuklamasi katta. A. Azimov uchun koinot insoniyat tafakkurining chegarasi, bilish istagining so‘nggi sinovidir. S. Quronov esa fazoni insoniy kechinma, orzu va sog‘inch bilan bog‘laydi. Qissada quyidagi lavha bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi: “*U kosmos sukunatida suzarkan, birdan yuragida g‘alati tuyg‘u paydo bo‘ldi. U Yerdan qolgan odamlarga, o‘zi yasagan kemaga va hatto o‘zining bolalik orzulariga mehr bilan termildi*” [Quronov, 2019: 31]. Bu parcha koinotni tashqi fazo emas, balki ichki ruhiy makon sifatida ochadi. Ahmadning sayohati nafaqat ilmiy, balki ma‘naviy yo‘l bo‘lib chiqadi. A. Azimovning asari insoniyat tafakkurining texnologik bosqichlarini ko‘rsatsa, S. Quronov qahramon shaxsida tafakkurning ichki, axloqiy va hissiy tomonlarini yoritadi. Birinchisida bilish obyektiv jarayon, ikkinchisida esa insoniy tajriba sifatida tasvirlanadi. Har ikkisi uchun umumiy narsa – ilm va tafakkur orqali abadiyatga yetish orzusi. Farqi shundaki, A. Azimov bu orzuni kosmik miqyosda, S. Quronov esa inson qalbi miqyosida izlaydi. Yuqoridagi tahlillar asosida har ikki muallifning asarlaridagi farqli narrativlarni quyidagicha aks ettirish mumkin:

Ilmiy fantastika narrativ modellari



Ushbu falsafiy va ramziy farqlarga qaramay har ikki asarning umumiy jihatlari ham ko‘zga tashlanadi. Biroq mushtaraklikdagi ham ayrim nisbiy farqlar borki, u mualliflar shaxs sifatida shakllangan muhit, muqaddassotlari va boshqa ijtimoiy va individual sabablarga aloqadordir:



Ilmiy fantastika janrida vaqt va fazo oddiy tasvir vositasi emas, balki badiiy mazmunning ichki mexanizmini belgilovchi element sifatida ishlaydi [Obidjonova, 2025:55]. Bu ikki kategoriya orqali

muallif inson tafakkurining kengligi va chegarasini ko‘rsatadi. A. Azimov va S. Quronov ijodida vaqt ham, fazo ham nafaqat voqelikni ifodalash, balki inson ongining rivojini ochib berish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. A. Azimov “So‘nggi savol” asarida vaqtni chiziqli harakatdan chiqarib, uni spiral shaklida tasvirlaydi. Har bir epizodda insoniyat yangi texnologik bosqichga o‘tadi, biroq bir savol doimo takrorlanadi: “Entropiyani qaytarish mumkinmi?” Hikoyaning so‘nggi qismida vaqt o‘z ma‘nosini yo‘qotadi, u abadiyatga singib ketadi: “Yulduzlar va galaktikalar o‘chib, so‘nib ketdi, o‘n trillion yillik pasayishdan so‘ng koinot qorong‘ilikka cho‘mdir”. Bu satrda vaqtning fizik davomiyligi emas, balki uning yo‘qolish jarayoni muhimdir. J. Jenet ta‘riflaganidek, bu retrospektiv vaqt holatidir, ya‘ni hikoya o‘tgan va yo‘qolayotgan zamoni bir vaqtning o‘zida qamrab oladi.

S. Quronovning “Galaktikada bir kun” qissasida esa vaqt ichki kechinma va hissiy tajriba shaklida kechadi. Qahramon Ahmad uchun vaqtning o‘lchovi tashqi hodisalar emas, balki orzu va hayajondir. Asarda Ahmadning bolalikdagi ilmga qiziqishi quyidagicha tasvirlanadi: “*Aslida, Ahmad dunyoga dong‘i ketgan kuchli olimlarning hali hatto tushiga ham kirmagan qurilmani ixtiro qilgan edi... U har qanday eshitgan, ko‘rgan narsasini xotirasiga xuddi video lavhaday muhrlab olar, kitob matnlarini sahifaga bir qarashning o‘zida o‘qib olardi*” [Quronov, 2019:8]. Bu epizodda vaqtning oqimi bola tafakkurining tezligi bilan o‘lchanadi. Ahmad uchun kecha va bugun bir-biriga singib ketadi. M. Bal nazariyasiga ko‘ra, bu subyektiv vaqtning ifodasidir: inson ichki tajribasi orqali vaqtni qayta yaratadi.

A. Azimov hikoyasida fazo cheksiz va sovuqdir. Koinot insoniyat uchun yangi makon, lekin bir vaqtning o‘zida yolg‘izlik manbaidir. Muallif bir joyda shunday yozadi: “*Inson yulduzlardan tobora uzoqlashib borardi*” . Bu misolda koinot bilim va taraqqiyot ramzi bo‘lsa-da, inson bilan o‘rtadagi masofa ruhiy uzilish sifatida aks etadi. Fazo bu yerda inson tafakkurining sinov maydonidir. S. Quronovda esa fazo aksincha, insonni o‘ziga yaqinlashtiradi. Ahmadning parvozi jarayonida u koinotni nafaqat ilmiy obyekt, balki hissiy makon sifatida idrok etadi: “*Ahmad yum-yum yig‘lagancha boshqaruv rulini qo‘liga oldi va ‘start’ tugmasini bosdi. “Ko‘kkezlar” osmonga ko‘tarila boshladi. – Hayr, do‘stim. Bizni kechir! – pichirladi Ahmad*”. Bu parchada fazo harakat manbai emas, ruhiy o‘tish vositasidir. Ahmad uchun uchish tashqi yutuq emas, balki ichki ozodlik ramzidir. Asarning yakunida koinot insonning ruhiy olamiga singib ketadi. Ahmadning o‘z oyisi bilan uchrashuvi tasvirlangan sahna shunday tugaydi: “*Oyi, Oyijon nahotki bu sizsiz?! – oyisining bo‘yniga osilib mahkam quchoqlab oldi Ahmad... Cho‘ntagidan u Moviy toshlarni chiqardi. ‘Demak, bu tush emas!’ xayolidan o‘tkazdi Ahmad*”. Bu epizodda fazo ramziy ma‘noda “uy”ga, ya‘ni ruhiy manzilga aylanadi. Ahmadning sayohati tashqi kashfiyot emas, o‘zini topish jarayoni sifatida yakunlanadi. A. Azimov va S. Quronov asarlarida vaqt va fazo turlicha badiiy vazifani bajaradi. A. Azimovda ular insoniyat tafakkurining kosmik yo‘lini ko‘rsatsa, S. Quronovda insonning ichki dunyosini ochib beradi. Birida vaqt abadiyat sari yoyilsa, ikkinchisida bir kun ichiga jamlanadi. Fazo ham shunga monand: Azimovda u insonni koinotga yoyadi, Quronovda esa koinotni inson qalbiga keltiradi. Shu tarzda, ikki yozuvchi ilmiy fantastika janrida vaqt va fazoni nafaqat tasvir unsuri, balki badiiy-falsafiy g‘oya markaziga aylantira olgan. Tadqiqot jarayonida ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastika janrining narratologik xususiyatlari tahlil qilindi. A. Azimovning “So‘nggi savol” hamda S. Quronovning “Galaktikada bir kun” asarlari qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki yozuvchi ilmiy fantastikani inson tafakkuri va bilish jarayonining badiiy ifodasi sifatida talqin etgan.

A. Azimov asarida vaqt siklik shaklda, fazo esa koinot miqyosida qurilgan. Hikoya qilish texnologik va falsafiy asosda kechib, insoniyat tafakkurining rivoj bosqichlarini aks ettiradi. Bayonchi pozitsiyasi ob‘yektiv bo‘lib, voqealar global miqyosda talqin etiladi. S. Quronov asarida esa vaqt subyektiv, fazo ruhiy-kechinmaviy tusda ifodalangan. Bayon ichki nuqtayi nazardan olib borilib, qahramon tajribasi orqali ilm va orzuning o‘zaro ta‘siri ochib beriladi. Bu jihatdan o‘zbek

adabiyotidagi ilmiy fantastika inson shaxsining ichki kechinmalariga tayangan holda milliy tafakkur doirasida shakllanganini ko‘rsatadi.

Tahlillarimizga ko‘ra har ikki yozuvchi ilmiy fantastika vositasida bilish, tafakkur va yaratuvchilik muammosini o‘ziga xos badiiy struktura orqali ifodalagan. Biroq ularning yondashuvi farqlidir, ya’ni ingliz adabiyotida bu jarayon ko‘proq ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida u ma’naviy-psixologik asosda tasvirlanadi. Natijada ilmiy fantastika janrining narratologik tahlili ikki adabiyot o‘rtasidagi badiiy tafakkur farqini aniqlashga, janrning milliy xususiyatlarini belgilashga imkon berdi. Bu tadqiqot ilmiy fantastikaning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va rivojlanish istiqbollarini aniqlashda nazariy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov I. The Last Question. In *Nine Tomorrows*, 3–26. New York: Doubleday, 1959.
2. Bal M. *Narratology: Introduction to the Theory of Narrative*. 4th ed. Toronto: University of Toronto Press, 2017.
3. Freedman C. *Critical Theory and Science Fiction*. Middletown, CT: Wesleyan University Press, 2000.
4. Genet G. *Narrative Discourse: An Essay in Method*. Translated by Jane E. Lewin. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1980.
5. Ibrohimova, Ra’no. Alisher Navoiy asarlarida fantastik tasvirning badiiy funksiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
6. Imran A., Ali S., Ishfaq M. Exploring Thematic Depth in the Short Story ‘The Last Question’ by Isaac Asimov: Employing Language Functions. *International Journal of Contemporary Issues in Social Sciences* 3, no. 3 (2024): 1054-1066.
7. Prasad, K., Aladini, A., Normurodova, N.Z. et al. Take language assessment easy: the mediator impacts of self-assessment, test-taking skills in predicting student evaluation apprehension, foreign language learning self-esteem, and language achievement in online classes. *Lang Test Asia* 13, 34 (2023). <https://doi.org/10.1186/s40468-023-00246-0>
8. НОРМУРОДОВА, Н. З. (2019). Роль заглавия в репрезентации концептуальной картины мира автора. *Иностранные языки в Узбекистане*, (6), 35-49.
9. Obidjonova M. The Literary Representation of Artificial Intelligence in Science Fiction Works. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 5, no. 7 (2025): 54-56.
10. Quronov S. *Galaktikada bir kun*. Toshkent: Akademnashr, 2019.
11. Seed D. *Science Fiction: A Very Short Introduction*. Oxford: Oxford University Press, 2011.
12. Suvin D. *Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre*. New Haven: Yale University Press, 1979.
13. Todorov T. *The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre*. Translated by Richard Howard. Ithaca, NY: Cornell University Press, 1975.
14. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. *American Journal of Philological Sciences*, 5(03), 119-123.
15. Mamarasulova, G. (2025). THE INFLUENCE OF ORIENTAL LITERATURE ON ENGLISH POETRY AND PROSE. *Nordic_Press*, 8(0008).
16. Torayevich, A. M., Xoliqovich, X. A., & Temirxonovna, Z. Y. (2022). Poetics of artistic speech in small prose works. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 680-684.
17. Asadov, M. (2022). A comparative study of the image of sisyphus in western and uzbek literature.
18. Hamroyev, K. (2024). ZAMONAVIY O ‘ZBEK HIKOYALARI POETIK TAKOMILI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабур и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inʼsasında halk biliminin işlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantıları	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezirali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

III SHO‘BA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
62.	Islamjan YAKUBOV. Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	Islamjan YAKUBOV. Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN. Uch tazkira qiyosi	308
65.	Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	Bahodir XOLIQOV. Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA. “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	Nuriddin ALTINBOYEV. Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA. The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA. The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	Xafiza KUCHKAROVA. Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	Dilafro‘z QAHNAROVA. Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	Elmira HAZRATQULOVA. Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА. Беҳбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	Ma’suma OVIDJONOVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ. Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansimalari	357
77.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ. Türk-islam kimliginin sembolü olarak Носа Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	Эльмира АДИБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ. Karaşaş Ana türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА. Keloğlan ile padişahin kizi masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА. Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР. Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN. Masalların mitolojik mirasi: şamanizm ve islam’in izleri	404